

O'QUVCHILARGA TABIATNI ASRASH VA E'ZOZLASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISHNI BUGUNGI KUNDA IJTIMOIY- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA O`RGANILISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15475442>

Ro`ziyeva Nazira Yodgorovna

Gmail ruzievanazira911@gmail.com.

Panjieva O`g'ilshod Baxodir qizi

Gmail ogilshodpanjiyevs@gmail.com

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti o`qituvchilari.

Bozorov Sadiddin Mirzaqul o`g`li

Axmedova Onajon Ne`matjon qizi.

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti talabalari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo`lib hisoblangan masala, ya`ni o`quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berishning bugungi ijtimoiy-pedagogik muammolari. atmosfera havosini sofligini asrash kelajakda sog`lom muxit ta`rzini yaratishga assosiy manba haqida tushunchalarni beriish.

kalit so`zlar

Tabiatni asrash, ekologik muammolar, ekologik tarbiya, ekologik ta'lif, ekologik dunyoqarash, amosfera havosi , aholi sog`ligi, tabiatni muhofazasi, tabiiy boyliklar, zamonaviy ilm-fan.

KIRISH QISM: Jahondagi bugungi muammolar qatorida o`quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish madaniyatini shakllantirish bugungi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o`rganar ekanmiz, eng avvalo ekologik ta'lif va tarbiya masalasiga e'tibor berib, bu insonni tabiatga qadam qo`ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanish odobini va madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masala bo`lib, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini asrash, tabiiy boyliklarni ko`paytirish, bog'-rog'lar, gulzorlarni tashkil qilishga undashdan, o`quvchi yoshlarni qalbida yaxshi psixologik-pedagogik xislatlarni uyg`otishdan iboratdir.

O`quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakillantirish xolati uzluksiz ta'limda qaydarajada

ekanligi bilan shug'ullangan olimlarimiz tadqiqot ishlari bilan tanishib, ularning tadqiqot ishlariga qisqacha to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berishni amalga oshirilgan, xamda ekologik tarbiyaning muammolari deyarli kiskacha tahlil etilgan. Mazkur o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berishni va tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiyaning uzlusiz ta'lim bilan bog'langan holda o'rganilganligini bugun tahlil etamiz. Uzlusiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

O'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi;
- oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim».

Keyingi yillarda ekologik ta'lim-tarbiya muammofiga bag'ishlangan qator ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Aksariyat tadkiqotchilar ekologik ta'lim-tarbiya tizimining tarkibi sifatida aniq tabiiy-ilmiy fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot-ishlari olib borganlar. Ammo o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiyalash texnologiyalari to'la o'rganilmagan.

Zero, ekologik tarbiya imkoniyatlari darajasi kanchalik yukori bo'lsa, kelajakdagi amaliy ishlar ko'lami samarali bo'ladi. Xalqimizning moddiy farovonligi va turmush darajasini yaxshilash, tabiatni muxofaza qilish mamlakatimizda umumxalk ishiga aylangan.

Insonlar uchun ekologik tarbiya berish bugungi kunning muxim va dolzarb muammofigi ekanligini anglab yetadilar va bu borada, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bunday degan edi: «Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin taxdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va tabiatni muxofaza qilish muammofigi alohida e'tiborga molikdir»⁵¹.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz ekologik tanglik taxdidini barham toptirish,

⁵¹Karimov I.A.. Uzbekiston XXI asr busagasi: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkoyot kafolatlari. - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - B. 110.

uning oldini olish chora-tadbirlariga qaratilgan bo'lib, mazmun mohiyatida insonning ekologik tarbiyasi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida «Fukarolar tabiiy muhitga extiyotkorona munosabatda bulishga majburdirlar», XII bob 54-moddasida «Mulkdor mulkiga o'z xoxishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning xuquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart», shuningdek, 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir»⁵² deb ko'rsatilishi barcha fuqarolarga majburiyat yuklab qo'ydi.

Tabiat va jamiyat tarakkiyoti konuniyatlari tug'risidagi ekologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya bnrishni va tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishni ham uzlusiz ta'lim jarayonida olib borish maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarni tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya bnrishni va tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishda tabiat va uning oldidagi ongli munosabatlarga asoslandi. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da uzlusiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlarida «ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning xuquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish»⁵³ deb belgilab berilgani umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi o'quvchilariga ekologik tarbiya berish imkonini beradi.

Hozirgi davr o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish tizim shaklidagi uzviylik yo'llarini ilmiy-pedagogik jixatdan ishlab chiqishni va uni ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy etishni taqozo etadi. Shuningdek, o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishning nazariy va amaliy asoslari maxsus tadqiq etilmaganligi bois respublikamizda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish yuzasidan ilmiy asoslangan pedagogik g'oyalar, xulosa va tavsiyalarga muxtojlik sezilmokda. Davlatimiz kelajagi va manfaatlari uchun o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiyalash texnologiyalari bugungi kun talabi ekanligi nuqtai nazaridan tadkikot ishlari olib borilmaganligi singari vaziyatlar mazkur muammo bilan bog'lik alohida tadqiqot mavzusini tanlashimizga asos bo'ldi.

⁵².Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Uzbekiston, 2023 y. - B.23-25.

⁵³.Barkamol avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori . - Toshkent: Uzbekiston, 1997. - B.45.

Mavzuni yoritishdan maqsad o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish mazmuni, shakl va uslublari, pedagogik shart-sharoitlarini aniklash, uslubiy tavsiyalar ishlab chikish va amaliyotga joriy kilish.

Uning asosiy vazifalari:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish mazmuni va uning komponentlarini nazariy jixatdan taxlil kilish;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiyalash texnologiyalari xolatini taxlil etish;
- umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishning nazariy tipologiyasini aniklash;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish shakl va metodlarini ishlab chiqish hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishning konseptual muammolarini o'rganish;
- fanlarning sinxron va asinxron bog'lanishlaridan tegishli mavzularda foydalanish;
- fanlarning integrativ bog'lanishini o'rganish;
- ta'lim sohalari va o'quv fanlaridagi uzviy bog'lanishidan ekologik tarbiya maqsadlarida foydalanish;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishda didaktik talab va tamoyillardan foydalanish;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish bilan bog'liq invariant topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishda mono va polididaktik jarayonlarni aniklash va ulardan samarali foydalanish;
- fanlararo bog'lanishlar asosida ekologik tarbiya berish metodikasini ishlab chikish;
- o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishni tashkil etish;

- fanlararo ekologik tarbiya berish uzlusizligi va uzviyliги tizimini ishlab chiqish;

- pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish;

- ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida uslubiy manbalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish.

O'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishning metodologik-didaktik asoslari, prinsiplari, qonuniyatları, psixologik-pedagogik imkoniyatlari asosida mezonlar ishlab chiqilib, pedagogika nazariyasiga qo'shgan ulushida; tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya bnrishni va tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishni ta'minlovchi o'quv materiallariga ega bo'lishida; tabiatni asrash va e'zozlash orqali tabiiy hududlarni muxofaza qilish orqali ekologik tarbiyani amalga oshirishdagi uslub va vositalar tizimining yaratilganligida; uzlusiz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari va ularni takomillashtirish yo'llarining ilmiy asoslab berilganligi tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyatida* aks etadi.

O'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarining bugungi davlat miqiyosidagi muammo sifatidagi bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri bo'lib tabiatga bo'lган mehr, uni asrash shundan iboratki daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas'ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmonida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida:

O'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish orqali ekologik tarbiya berishning bugungi muammo sifatida o'rganar ekanmiz, bu borada «Tabiat – odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud bo'lган borliq. Tabiat ob'ekti fazo va vaqtida mavjud modda, materiyadir» [99; 207].

Tabiat – insonning moddiy va ma'naviy talablarini qondiruvchi birinchi manba. Shu sababdan ham tabiatni asrash va e'zozlash hozirgi kunga qadar barchani qiziqtirib kelgan muhim masalalardan eng asosiysi hisoblanadi. Tabiat deganimizda butun borliq, turfa olam, sayyoramizdagi jonli va jonsiz jismlar tushuniladi. Yerning jonli qismiga inson, o'simlik, hayvonot dunyosi va

mikroorganizmlar, jonsiz qismiga esa havo, suv va tog' jinsi qatlamlari mansub. Ular bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir.

Tabiat - inson uchun go'yoki beshik, bamisoli ona quchog'i. Uning bag'ri keng, qalbi esa inson uchun hamisha ochiq. U o'z saxovati, noz-ne'matlarini insonlardan aslo ayamaydi. Yer esa jamiki boyliklar, noz-ne'matlarning manbaidir. Shuning uchun ham insoniyat tomonidan e'zozlanib, ulug'lanib, ona zamin deya e'tirof etiladi.

Bugungi kunda bizning yashash turmush sharoitimizda tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berishda "iqlim o'zgarishlari", "global isish", "ekologik tanglik", "ekologik tahdid", "ekologik ofat", "ekologik inqiroz" singari tushunchalarni ko'p eshitamiz, amaliyatda uni guvohi bo'lib turibmiz va u insonga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugun iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammo ekanı jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinmoqda. Bu borada o'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berishda iqlim o'zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo'yicha kechiktirilmaydigan choralar ko'rish zarurligini taqazo etmoqda. Dunyo ekolog olimlari va zamonaviy ilm-fan iqlim o'zgarishining salbiy oqibatları insoniyat va uni genefondi va hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlovchi jiddiy asoslar taqdim qilmoqdalar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BIT 72-sesiyasida** so'zlagan nutqida xalqimiz, qolaversa dunyo miqiyosida Orol muammolarini, ekologik fojiya ekanligi va uning oldini olish masalalari ko'tarib chiqqilgan edi. Shundan so'ng, ya'ni ayni paytda tabiatni asrash va e'zozlash butun dunyo miqiyosidagi eng dolzarb muammo sifatida jahon e'tiboridagi masalalardan biriga aylandi. E'tiborli tomoni shundaki, Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida, "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjalarning loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yи mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy

jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi"⁵⁴ ,-deb ko'rsatilishi ham o'ta muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida jahon hamjamiyatini, shu jumladan mintaqqa mamlakatlarini ekologik masalalarda, jumladan Orol dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirish zarurligini ta'kidlab o'tilgan edi. Bugungi kunda mazkur masalalarda amaliy ishlarni barchamiz guvohi bo'lib turibmiz. Birgina misol sifatida BMT homiyligi ostida Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sherikli "Trast" fondining tashkil etilishi yoki mustaqillikning dastlabki yili davomida Orolning qurigan tubida 400 ming gektarda o'rmonzor tashkil etilgan bo'lsa, so'nggi uch yilda qariyb 1500 ming gektarga saksovul va bosh cho'l o'simliklari urug'lari sepilganligi va ko'chatlari ekilganligini keltirish mumkin. Shuningdek, bu sohada Yurtboshimizning "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil makon" umummilliy loyiha asosida iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasining bir qator bandlarida tabiatni asrash va e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilanganligi iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun bevosita huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mutaxassislarning tahlili va fikriga ko'ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°S ga ko'tarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolbo'yida ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayanchli tomoni shundaki, Hukumatlararo ekspertlar guruhi Yer ilgari hisob-kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040 yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Issiq to'lqinlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshlaydi, muzliklar erishi yanada kuchayadi. Ayniqsa, joriy yilda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatishimiz mumkin.

Tabiatni asrash va e'zozlash, atrof-muhitni saqlab qolish ko'p jihatdan yosh avlodni to'g'ri tarbiya qila olishimizga bog'liq. Ularda jonli va jonsiz tabiatga achinish, e'zozlash hislarini uyg'otishimiz lozim. Aynan shu jarayonlarning mohiyatida maktab o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashning pedagogik asosi yotadi.

⁵⁴O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
<https://uza.uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

Eng muxim masala - axolining ekologik madaiiyatini oshirish hakida jiddiy bosh kotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni fakat ma'muriy yul bilan xal etib bulmaydi, bunga yosh avlod kalbida ona tabiatga mexr-muxabbat, unga daxldorlik xissini tarbiyalash orkali erishish mumkin. [15;540-b].

O'quvchilarga tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish masalalari muammo sifatida o'rganilar ekan, ishlab chiqayotgan bugungi kun zamonaviy pedagogikasida tabiatni asrash va e'zozlash orqali tarbiyalash texnologiyasi, yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Tabiatni asrash va e'zozlashorqali ekologik tarbiya berish muammosining yechimi - bu, birinchi navbatda, o'quvchilarining ilmiy ekologik dunyoqarashlarini shakllantirishdan iborat. O'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish texnologiyasi ekologik muvozanatni saqlash, tabiatdan talon-taroj qilmasdan oqilona foydalanish o'quvchilarining ekologik kompetentligini hayoti va faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy ekologik neytral texnologiyalar qo'llashni talab etadi. O'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish sohasidagi ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirilishi lozim.

O'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish sohasida ilmiy faoliyat deyarli hali yetarlicha olib borilmayapti.

Tabiatni asrash va e'zozlash - keng qamrovli tushuncha. U insondagi yuksak ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy va axloqiy xislatlarni o'z ichiga olgan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Ma'lumki, har bir bolada o'zi yashab turgan o'lka va Vatani tabiatiga muhabbat qo'yish, undagi go'zalliklarga o'zgacha nazar bilan qarash, bu go'zallikdan bahra olish, uni asrash va e'zozlash, asrab-avaylash, tabiiy ne'matlardan oqilona foydalanish tuyg'usi o'sib boradi. Bolalikdan shakllantirilgan bu hissiyot keyinchalik maktab davrida rivojlanib, boyib, takomillashadi.

«E'zozlash» so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da E'ZOZ - arabcha so'z bo'lib, (izzat, hurmat; mehr, iltifot) xurmat-e'tibor his-sezgisi va uning ifodasi; ehtirom. E'ZOZ QILMOQ (yoki ETMOQ) E'ZOZLAMOQ. Mehr-e'tibor bilan munosabatda bo'lmoq, e'zoz etmoq [Ошибка! Источник ссылки не найден.; 66-b.] deb izohlangan.

Ushbu izohlarga tayangan holda, bizningcha, tabiatni e'zozlash inson ma'naviyatining muhim belgisi, mafkuraviy jarayonlarning umumbashariy, mintaqaviy, milliy va mahalliy ko'rinishi bo'lib, insoniyatning olamshumul muammolaridir deb ta'kidlash mumkin.

Inson salomatligi uchun qulay sharoitlar yaratish, ekologik muvozanatni saqlash, tabiatdan talon-taroj qilmasdan oqilona foydalanish inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy ekologik neytral texnologiyalar

qo'llashni talab etadi. Biroq, hozirgi vaqtida tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish texnologiyasiga sohasida ilmiy faoliyat deyarli olib borilmagan.

O'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish texnologiyasiga oid bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, o'quvchilarni kichik tadqiqotlar olib borishga rag'batlantirish, tarbiyada ijobiy natijalarni qo'lga kiritish, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirish kabilarni kafolatlaydi. 5ty

O'quvchilar «Atrofimizdagি olam», «Tabiatshunoslik» "Botanika", "Zalogiya" va "Anatomiya" darslarida tabiatni asrash va e'zozlash, atrof-muhit, havo, suv, tuproq, iqlim, tabiat boyliklarini muhofaza qilish, jonli va jonsiz tabiat o'rtaida o'zaro uzviy aloqadorlik, bog'liqlik haqidagi bilimlarni oladi va yuqori sinfda biologiya, zologiya va anatomiya fanlarida o'simliklar hamda hayvonlarga e'tiborli bo'lish ko'nikmalari shakllanadi.

O'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish uchun tabiat haqidagi bilimlari ahamiyatga molikdir. Barkamol avlodni tarbiyalash tamoyilida tabiatshunoslik haqidagi bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Tabiatshunoslik ilmisiz kuchli aqliy tafakkur shaklanishi mumkin emas; hech bir bilim sohasi tabiat sohasidagi bilimlar kabi tabiatga ongli munosabatda bo'lishga mazkur fanchalik o'rgatmaydi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaga oid «Atrofimizdagи olam», «Tabiatshunoslik», "Biologiya" "Zologiya" va "Anatomiya" fanlari o'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash ruhida tarbiyalash texnologiyasining zaruriy asosi ekanligini nazarda tutib, tabiatshunoslikka qisqacha tavsif berishni joiz deb topdik.

O'quvchilarda asosiy tabiatga oid tushunchalar tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tarkib toptiriladi. O'qituvchi o'quv dasturi va darslikka tayangan holda o'quvchilarni asta-sekin tabiat olamiga olib kiradi hamda tabiiy voqeа-hodisalar bilan tanishtiradi. Shu asosda o'quvchilarda rang-barang tabiat to'g'risidagi muayyan tasavvurlar paydo bo'ladi.

Tabiatshunoslik deganda "Biologiya" "Zologiya" va "Anatomiya" fani mazmuni, nafaqat, muayyan bilim, qadriyat, me'yoriy qoidalarni o'zlashtirishni, balki tabiatdagi o'simliklar dunyosi, hayvonot va tirik olamiga amaliy yordam ko'rsatishni, ularni asrash va e'zozlash, parvarishlash hamda ko'paytirishni ham nazarda tutadi.

Agar biz o'quvchilarda tabiatni asrash va e'zozlashga orqali ekologik tarbiya berish yoshligidanoq mehrni uyg'ota olsak, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etsak, ular ona zaminga ongli munosabatda bo'ladilar. O'z mehnatining mevasi shirin bo'lishi, turmush farovonligi, mamlakatdagi to'kin-sochinlikdan, bunda ota-

ona va kichik bo'lsa-da o'zining ham hissasi borligidan zavq oladi. Nafaqat o'zi yaratishga hissa qo'shgan ne'matlar, balki o'zgalar mehnatini ardoqlash, shuningdek, tabiatni e'zozlashga ham odatlanadi.

Bugungi kun ta'limi faqatgina bilim berishni emas, balki ma'naviy, iqtisodiy tarbiya berishni ham o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Binobarin ushbu o'rinda ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiyada, ayniqsa, o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sharqona hikmatlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va uni e'zozlashga o'rgatish uchun o'quvchilar ongida tabiatni e'zozlash g'oyalarini singdirish zarur. U orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiat haqidagi bilimlarni egallab, o'simliklarni o'stirish va asrab-avaylash, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'zlashtirib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini qalban his eta olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyojkorlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi.

o'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiyalash o'qituvchidan ularni ona tabiatni asrash bo'yicha ma'lum hajmdagi bilimlarni egallahshlariga undash, tabiatga to'g'ri munosabatni shakllantirishni taqozo etadi. Ammo birgina bo'g'in faoliyat samaradorligini to'laqonli amalga oshira olmaydi, bunga oila, bog'cha, maktab, mahalla, umuman, jamoatchilikning birgalikdagi harakati bilan samarali natijaga erishish mumkin.

XULOSA: Tabiat - insonning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy manbadir. Ana shu manbaning mohiyati haqida yetarlicha tushuncha berish, o'quvchilarni tabiatni e'zozlashga o'rgatish o'qituvchining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada borliq va uni anglash haqidagi mavzulardan foydalanish keng imkoniyatlarga yo'l ochadi. Shu jumladan, tabiatdagi o'simliklarga befarq bo'lmaslik, ularning nobud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kabilarga e'tibor qaratish ham o'quvchilarini tabiatni asrash va e'zozlash orqali ekologik tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. – T.: «O'qituvchi», 1997. 18-b..
2. Xamrokulova Sh.E. Umumta'lim maktablarida ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish masalalari. VOLUME 2 | ISSUYe 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Sciyentific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. www.ares.uz.

3.O'rionboyeva M.S. Tabiatga ekologik munosabatlarning ma'naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlari. "Sciyencye and Education" Sciyentific Journal. May 2020. -B.594. www.opensciencye.uz.

4.Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. - Toshkent: Universitet. 2009. – 127 b.

5.Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi – Toshkent.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y. -B.153.

6.Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – Toshkent: O'zbekiston. 1997. – 44 b.

7.Kistaubayev S.U. Shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning roli.-Samarqand, 2019. -47 s.